

PSIXOLINGVISTIKANING OG'ZAKI VA YOZMA KO'NIKMALARINI O'RGANISHDAGI MUAMMOLARI

Dilrabo Baxronova Keldiyorovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, DSc.

dbaxronova@uzswlu.uz

<https://orcid.org/0000-0002-2012-7426>

Jo'rareva Barno Nizomiddinovna

Termiz muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi.

barnojuraeva234@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11200189>

Annotatsiya. Psixolingvistika – bu tilni qayta ishlash usullari, ya'ni odamlar tilni qanday tushunishlari, ishlab chiqarishlari, egallashlari yoki yo'qotishlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik va psixologiyaning kesishgan qismidir. Shuningdek, psixolingvistika tilshunoslikning fonologiya, morfologiya, sintaktika, semantika kabi barcha bo'limlari tadqiqida, o'qish va yozishni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari bu fan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida aralashadigan kognitiv jarayonlarni ham qamrab oladi. Quyida psixolingvistikaning ba'zi jihatlariga to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, yozma va og'zaki nutq, ta'lim, o'rganish.

PROBLEMS OF PSYCHOLINGUISTICS IN LEARNING ORAL AND WRITING SKILLS

Abstract. Psycholinguistics is the intersection of linguistics and psychology that deals with the study of language processing, that is, how people understand, produce, acquire, or lose language. Also, psycholinguistics is important in the study of all branches of linguistics, such as phonology, morphology, syntax, semantics, and in learning to read and write. In addition, this science covers cognitive processes involved in information processing. Some aspects of psycholinguistics are discussed below.

Key words: psycholinguistics, written and oral speech, education, learning.

ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ В ОБУЧЕНИИ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ НАВЫКАХ

Аннотация. Психолингвистика — это пересечение лингвистики и психологии, которое занимается изучением методов языковой обработки, то есть того, как люди понимают, производят, приобретают или теряют язык. Также психолингвистика важна при изучении всех разделов языкоznания, таких как фонология, морфология, синтаксис, семантика, а также при обучении чтению и письму. Кроме того, эта наука охватывает

когнитивные процессы, связанные с обработкой информации. Некоторые аспекты психолингвистики обсуждаются ниже.

Ключевые слова: психолингвистика, письменная и устная речь, образование, обучение.

Til odamlarning his-tuyg'ulari, fikr va g'oyalari kabilarni ifodalash imkonini beradi, ular o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi asosiy vosita rolini o'yinaydi. Ba'zan o'zaro til orqali munosabatlar buzilishi, fikrni ifodalashda muvaffaqiyatsizlikka uch rash, muloqotda kognitiv va hissiy muammolarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Mana shu kesimda Psixolingvistika yoki Til psixologiyasi fani vujudga kelgan deb hisoblanadi. Ma'lumki, psixologiya – bu psixik jarayonlarni o'rganadigan fan. Bu so'z yunoncha: *psixo* – ruh yoki aqliy faoliyat va *-logiya* – o'rganish, ta'limot ma'nosini beruvchi qismlardan hosil bo'lgan. Tilshunoslik, ya'ni lingvistika esa lotincha *lingua* – "til", *-ista* – "band bo'lish, mashg'ulot" va *-ico* "nima bilandir bog'liqlik" kabi so'z va qo'shimchalardan hosil bo'lgan va bu fan tilga tegishli barcha qadimgi va zamonaviy qonun-qoidalarni qamrab oladi. Yuqoridagi ikki – psixologiya va lingvistika fanlaridan psixolingvistika yo'nalishi shakllandi. Bu termin dastlab 1946-yilda amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan fanga kiritilgan deb hisoblanadi, u XX asrning 50-yillaridan boshlab dunyo ilm-faniga keng yoyila boshlandi. O'zbek tilidagi tadqiqotlarda psixolingvistika va til psixologiyasi kabi terminlarda atalib kelinmoqda¹.

Til psixologiyasidan fikrlash, yozish, tinglash, vizual tushunish va og'zaki ifoda kabi til ko'nikmalarini tahlil qilishda foydalilanadi. Yozma nutq til o'rganishning muhim vositalaridan biri bo'lib, u orqali odamlarda aqliy va kognitiv jarayonlar rivojlanadi. Og'zaki nutq, o'z navbatida, xabarlarni cheksiz tarzda uzatish imkonini beradi. Umuman olganda, nutq xoh og'zaki yoki xoh yozma shaklda bo'lsin, u odamlarga deduktiv, tanqidiy va ijodiy fikrlashga erishishda ulkan imkoniyatlar taqdim etadi. Umuman, psixologiya inson tafakkuri, his-tuyg'u va xatti-harakatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, tilshunoslik esa tilning qanday namoyon bo'lishini o'rganadi. Ikkala nazariya va yondashuvlar qo'shilgan o'rinda yangi tadqiqotlar rivojlanadi, inson haqidagi, uning til bilish, so'zlash qobiliyatları kengroq mushohada etiladi.

G.Nasirovaning fikricha, til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish obyekti hisoblanadi. Shunga asosan, bu ikki fanning sintezi

¹ Usmanova Sh. "Psixolingvistika" fanidan ma'ruza kurslari. – Toshkent: Universitet, 2014.; Radjabova F., Radjabova M. Chet tilini o'rganishning psixologik jihatlari. // Oriens, Volume 2, Issue 24, 2022. – B. 316 -327.

sifatida, kesishgan nuqtada psixolinguistika (lingvopsixologiya) yo'nalishi yuzaga keldi. U ichki nutqni tekshirish jarayoni, nutqni qabul etish, tilni egallash kabi masalalarni o'rganadi².

Psixolinguistikaning maqsad va qo'llanilishiga quyidagilar hisobga olinadi:

Uning asosiy *maqsadi* inson tilni yaratish va ishlatalishi paytida sodir bo'ladigan nevrologik kabi psixologik jarayonlarni anglash va tushuntirishdir, bunda quyidagi jihatlar ajralib turadi:

1. Inson miyasi og'zaki yoki yozma ravishda qabul qilingan xabarlarni qanday tushunishini bilib olish, idrok eshitishning vizual turida ongda kechadigan hissiyotlar bilan qanday farqlari bor va ular qanday paydo bo'ladi, degan savollarga javob berish.
2. So'zlar ketma-ketligi qanday ishlab chiqarilishi va tartiblanishini bilish.
3. Insonning gapirish va tushunish qobiliyatini ta'minlaydigan tuzilmalar va jarayonlarni tahlil qilish.
4. Til malakalarining funksional tashkil etilishini belgilash.
5. Tilning yoshga doir rivojlanib borishini o'rganish va hk.

Til o'rganishda eng avvalo, oila muhim rol o'ynaydi. Aynan oila yadrosida inson bolalik davridan boshlab uni rivojlantirish, o'zini ifoda etish va u orqali atrof-muhit bilan muloqot qilishni o'rganadi. Bizningcha, oilada buni rag'batlantiradigan eng kuchli omillardan biri bu, oilaning fikr va g'oyalarni bir-birlari bilan o'zaro ishonchda to'sqiniksiz va xavfsiz ifoda eta bilishlaridir.

Amerikalik olimlar P.Seymur va S.MakGregor tomonidan ishlab chiqilgan psixolinguistik model (1984) bugungi kunda o'qish va imloni rivojlantirishni o'rganishdagi eng to'liq modellardan biri deb tan olingen. Bu model til o'rganishda psixolinguistik aralashuvning turli funksiyalarini tahlil qiladi va to'rtta asosiy prosessorning harakatini o'z ichiga oladi: grafik, fonologik, semantik va orfografik.

O'qishni yozish jarayonini tahlil qilishning ushbu modelidan turli mexanizmlar yoki prosessorlardagi mavjud kamchiliklarni aniqlash mumkin, ular asosida disleksiyaning har xil turlari – morfemik, vizual-analitik va fonologik farqlanadi. Disleksiya o'zi nima? **Disleksiya** (qadimgi yunonchadan δυσλεξία – nutq buzilishi), bu umumiyo'rganish qobiliyatini saqlab qolgan holda, aynan o'qish va yozish ko'nikmalarini egallash qobiliyatining buzilishi, demakdir.

Tarixiy jihatdan, aksariyat Yevropa mamlakatlarda "disleksiya" tushunchasi yozma nutq bilan bog'liq barcha muammolarni o'z ichiga oladi:

- a) o'qish mahoratini o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar;
- b) yozish mahoratini o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar;

² Nasirova G. M. Psixolinguistik tadqiqotlar ahamiyatining dolzarbliji. <https://cyberleninka.ru/article/n/psixolinguistik-tadqiqotlar-ahamiyatining-dolzarbliji>

- c) savodxonlik muammolari;
- d) arifmetikani o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar;
- e) harakatlar va ularning ketma-ketligining buzilishi bilan bog'liq muammolar;
- f) diqqatni jamlash bilan bog'liq muammolari³.

Har xil disleksiya turlarini aniqlash bir qator aniq baholash vazifalari asosida o'rganilgan identifikatsiya mezonlariga muvofiq belgilanadi. Disleksiya, shubhasiz, ta'lim oluvchining u yoki bu perdmetni o'rganishdagi muammolarini tahlil qilishda eng ko'p qiziqish va shu bilan birga, eng ko'p qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqaruvchi hamda yozma tilni o'rganishdagi buzilishlarni keltirib chiqaradigan qiyinchiliklardan iborat. O'qituvchilar disleksiyada talabalarining o'qishni kam yoki umuman o'zlashtirmasliklari uchun tinchlantiruvchi tushuntirishni topdilar, bu o'zlarini har qanday mas'uliyat yoki texnik-pedagogik harakatlardan ozod qildi. Ko'p yillar davomida disleksiya tilchi olimlarda katta qiziqish uyg'otganligi bois, bu terminning ko'p va xilma-xil ta'riflari paydo bo'ldi. Ushbu qiyinchilikni o'rganishni birinchi bo'lib qayd etgan olimlardan biri B.Halgren disleksiyani quyidagi mezonlarga asoslanib tavsiflagan⁴:

1. Yozishni o'rganishdagi qiyinchilik.
2. O'qish va yozishda o'rtadan past muvaffaqiyatga erishish.
3. O'qish va yozish ko'rsatkichlari hamda mактабдаги бoshqa fanlar o'rtasidagi nomuvofiqlik yoki nomutanosiblik.
4. O'qish va yozishdagi muvaffaqiyat bilan umumiy intellekt o'rtasidagi nomuvofiqlik.

Shuni ta'kidlash kerakki, B.Halgren mezonlariga mos keladigan boshqa ko'plab ta'riflar ham mavjud, disleksiya sindromini tushuntirish va unga aralashish uchun bir yoki boshqa omillarga ta'sir qilishda psixolingvistikka ajralib turadi, bu rivojlanish disleksiyasi asosan psixolingvistik jarayonlardagi yetuklik yoki kamolotdan ortda qolish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Psixolingvistik nuqtai nazar axborotni qayta ishslashning kognitiv nazariyasining yondashuvlaridan kelib chiqadi, ya'ni, psixolingvistik nuqtai nazardan, disleksianing bir nechta turlari, aniqrog'i, sintaktik, semantik va fonologik ishlov berishning psixolingvistik qobiliyatlarini bilan bog'liq buzilishlarga asoslangan bo'lib, ular sezgi qobiliyatidan ko'ra ko'proq kognitiv xususiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, biz savodxonlikning psixolingvistik tahlili asosida quyidagi qayta tarbiyaviy ta'sir etishlarni ko'rsatishimiz mumkin:

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Disleksiya>

⁴ Hallgren B. (1950). Specific dyslexia (congenital word-blindness); a clinical and genetic study. *Acta psychiatrica et neurologica. Supplementum*, 65, 1–287.

- a) Psixolingvistik nuqtai nazaridan yondashish o'qish va yozishni o'zlashtirishda fonologik, semantik va morfologik ishlov berishning turli funksiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi, shu bois, disleksiyanı o'rganishda faqat an'anaviy ravishda ko'proq e'tibor berilgan psixomotor yoki perceptiv omillarga e'tibor qaratmasdan, balki fonologik, semantik va morfologik ishlov berishning turli funksiyalarini birga olib borish juda muhim ahamiyatga ega.
- b) Psixolingvistik nuqtai nazar bir qator vazifalarni (semantik, vizual ishlash, ovoz chiqarish va boshqalar) osonlashtiradi, bu bizga sub'ektning kamchiliklari qaysi kompetensiyalarda yotganini va ular qanday turdag'i disleksiyanı namoyon etishini yorqinroq aniqlash imkonini beradi.
- c) Fonologik disleksiyanı tiklash uchun fonetik o'qish usullaridan foydalanish qulay va maqsadga muvofiqdir.

Qanday bo'lmasin, disleksiyanı qayta tarbiyalashda psixolingvistik nuqtai nazaridan yondashish, mavzularda psixolingvistik ko'nikmalarni rivojlantirish, assotsiativ faoliyat olib borish, imlo va boshqalarni hisobga olish kabilar o'quvchilarni o'qish va o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari tilni o'rganishda disleksiyanı yengib keyingi bosqichlarga o'tish imkonini tushuntiradi, ularni psixolingvistika va unga moslab sotsiolingvistika nuqtai nazaridan tadqiq qilishda nazariy asos vazifasini o'taydi, shuningdek, til tizimi, yozma va og'zaki nutqni mukammal egallashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Bakhronova, D. K. (2020). Psycholinguistic Factors of Foreign Language Teaching To Students and Cadets (on the example of the Uzbek language). GIS Business, 15 (6), 155-161.
2. Disleksiya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Disleksiya>
3. Gordon D.A. Brown, Connectionism, Phonology, Reading, and Regularity in Developmental Dyslexia, Brain and Language, Volume 59, Issue 2, 1997, Pages 207-235, ISSN 0093-934X, <https://doi.org/10.1006/brln.1997.1817>. Cognitive Neuropsychology, 1, 43-82.
4. Guli Ergasheva Ismoil kizi, Kodirova Fazilat Shukurovna, & Dilrabo Bakhronova. (2024). The Constitutive Nature of Gender Mainstreaming Discourse: Uzbekistan Context. SPAST Reports, 2(1). Retrieved from <https://spast.org/ojspath/article/view/4891>
5. Hallgren B. (1950). Specific dyslexia (congenital word-blindness); a clinical and genetic study. Acta psychiatrica et neurologica. Supplementum, 65, 1–287.

6. Mishra, D., Bakhronova, D., Djalilova, U. (2023). Activity-Based Learning: An Analysis to Teach Learners Using Online Methodologies. In: Nguyen, T.D.L., Lu, J. (eds) Machine Learning and Mechanics Based Soft Computing Applications. Studies in Computational Intelligence, vol 1068. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-19-6450-3_17
7. Nasirova G. M. Psixolingvistik tadqiqotlar ahamiyatining dolzarblii. <https://cyberleninka.ru/article/n/psixolingvistik-tadqiqotlar-ahamiyatining-dolzarblii>
8. Radjabova F., Radjabova M. Chet tilini o'rganishning psixologik jihatlari. // Oriens, Volume 2, Issue 24, 2022. – B. 316 -327.
9. Seymour, P. H., & MacGregor, C. J. (1984). Developmental dyslexia: A cognitive experimental analysis of phonological, morphemic, and visual impairments. Cognitive Neuropsychology, 1(1), 43–82. <https://doi.org/10.1080/02643298408252016>
10. Thomson, M.E. (1992). Dislexia: su naturaleza, evaluación, y tratamiento. Madrid. Alianza.
11. Usmanova Sh. "Psixolingvistika" fanidan ma'ruza kurslari. – Toshkent: Universitet, 2014.